

SHAXSDA SUITSID XOLATINING KELIB CHIQISHI VA UNING PSIXOLOGIK MEXANIZMALARI

Axmedov Davlatbek

*Namangan davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo`nalishi
Ikkinchchi bosqich magistranti*

Abstract: This article interprets the psychological mechanisms and causes of its origin in individuals with a predisposition suicides.

Аннотация: В этой статье рассматриваются психологические механизмы и причины его возникновения людей с суициальными наклонностями.

Annotatsiya: Ushbu maqolada suitsidga moyilligi bo`lgan shaxslarda uning kelib chiqishining psixologik mexanizmlari va sabablari talqin qilingan.

Ключевые слова и понятия: самоубийство, личность, психоанализ, аутодеструктивное поведение, социально-психологическое, предрасположенность, разочарование

Kalit so‘zlar: Suitsid,shaxs, psixoanaliz, autodestruktiv xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik, predispozisiya, frustrasiya

Keywords: Suicide, person, psychoanalysis, autodestructive- behavior, sosio-psychological, predisposing, frustration

Bugungi kunda barchamizga ma’lumki, barcha mamlakatlarda jadallik bilan rivojlanmoqda ammo bir qancha global muammolar mavjud va xali hanuz o’z yechimini topmagan. Bulardan eng keng ommalashgan muammo sifatida suitsidni keltirish mumkin.

Bu termin suitsid-o’z joniga qasd qilish degan ma’noni anglatib,o’z joniga qasd qiluvchilar suitsidentlar nomi bilan ataladi.Bu holatni amalga oshiruvchilarning ko’pchiligi sog’lom ong egalaridir,ularda turli depressiya,oilaviy va moliyaviy muammolar,ruhiy va jismoniy holatlar natijasida shu jarayoni amalga oshiradilar.

Dunyoda har yili millionga yaqin odam o‘zini o‘ldiradi, 10-23 millionta xudkushlikka omadsiz harakat bo‘ladi. Rossiyada har yili 60,000, AQShda taxminan 1,5 barobar ko‘proq uchraydi. Yaponiyada 30,000 dan ziyod va Xitoyda 250,000 nafar kishi suitsid oqibatida vafot etadi.

Bir qator mualliflar fikricha, autodestruktiv xulq-atvor shakllanishida genetik omilning ahamiyati tasdiqlanganki, bu o‘z joniga qasd qiluvchilarning qarindoshlari orasida suitsid ko‘proq sodir etilishi bilan kechadi. Biroq, psixodinamik va klinikopsixologik yondashuv namoyondalari fikricha, suitsid sabablarini genetik asoslarda emas, balki yaqin insonini o‘z joniga qasd qilish faktining psixogenetik

ta'sirida, uning qarindoshlar xulq-atvoriga modellashtirilgan ta'sir o'tkazayotganligida deb karaladi.

Suitsidal xulq-atvorni o'rganishning biologik yondashuvidagi psixopatalogik konsepsiya alohida e'tiborga loyiq, uning asosida o'z joniga qasd qilganlarning hammasi - psixik kasalliklarga chalingan shaxslar, - degan fikr mavjud. XIX asrning ikkinchi yarmida, inson faqatgina ruhiy kasallik holatida o'z joniga qasd qilishi mumkin,- degan fikr hukm surar edi. Fransuz psixiatri Eskirol bu borada, psixik kasallik va o'z joniga qasd qilish o'rtaida aniq aloqadorlik borligi haqida qarashini ilgari surgan.

Amaliyotda kuzatilganidek, ko'pgina psixik kasallarda suitsid depressiya, paranoid va gallyusinator - paranoid holatlarda uchraydi. Suitsidning yuqori foizi narkomaniya va alkogolizmga chalingan, shaxsiy nosozliklari mavjud bo'lgan kishilarda uchraydi. Masalan, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda, 100 ta o'rganib chiqilgan suisidentlar kasallik tarixidan 93 suisident psixik kasallar deb tan olingan, (50% alkogoliklarda va taxminan 20% deperssiv kasallarda o'z joniga qasd qilish bilan tugagan,). A.G.Ambrumova va V.A.Tixonenko izohlaganidek, suisidentlar majmui uchta asosiy diagnostik kategoriya bilan namoyish etilgan: nervopsixik kasalliklar bilan chegaradosh psixik kasalliklarga chalingan kasallar va mutlaqo psixik sog'lom bo'lgan shaxslar. Mualliflar fikricha, o'z joniga qasd qilish alohida klinik fenomen bo'la olmaydi. Ular berilgan ma'lumotlarga ko'ra uchala keltirilgan kategoriylar bo'yicha o'zaro miqdor nisbati.

Ob'ektiv sabablar va sub'ektiv kechinmalar bir biriga mos tushmasligi mumkin.
¹Moslashmaganlik - suisidning faqat ehtimoliy shartlaridan biridir. Suisidga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik moslashmaganlikni dinamikada ko'rib chiqib, muallif ikki fazani ajratadi: predispozision i suisidal. Predispozisiya (moslashmaganlikning mavjudligi) suisidal axloqning to'g'ridan-to'g'ri determinant bo'lib xizmat qilmaydi. Uning suisidal fazagi o'tishida shaxs tomonidan boshdan kechirilgan nizolar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Nizolar shaxslararo va shaxslar ichidagi xarakterni olishi mumkin. U holda ham, bu holatda ham u ikki yoki bir necha turli yo'nalishli tendensiyalardan tashkil topadi, bittasi asosiy, inson uchun ushbu daqiqada dolzarb ehtiyojdan, boshqasi esa – uni qondirishga to'sqinlikdan iborat. Nizolarni yechish u sodir bo'lgan muhit va zaxiradagi moslashuv mexanizmlari tizimining ahamiyatiga bog'liq. Shaxsning moslashmaganlik ostonasidan o'tuvchi nizolar krizisli hisoblanadi. Shunday qilib, predispozision moslashmaganlik va nizoli vaziyatni o'zgartirishga qodir real usullarning imkonsizligi sharoitida suisid shaxsning o'zida boshqa hamma harakatlarning o'rmini bosib

¹ Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Darslik / Muallif: N.G'.Komilova. - Toshkent: TDYP, 2020.

ketadigan yagona reaksiyasi, har qanday faoliyatdan o'z-o'zini chetlatish usuli sifatida yuzaga chiqadi.

E.Shneydman [19, 25] suisidni psixologik ehtiyojlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Uning nazariyasiga muvofiq suisidal axloq ikki tayanch lahzani aniqlaydi:

- qolgan boshqa hamma narsadan kuchli bo'lgan qalb og'rig'i;
- frustrasiya holati yoki shaxsning birmuncha ahamiyatli ehtiyojiga noto'g'ri ma'nō berish.

²Karl Gustav Yung o'z joniga qasd qilish masalasiga oid qarashlari, insonda ruhiy qayta tug'ilish intilishi mavjud bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri ruh ko'chishidan qayta tug'ilishigacha turli shakllarni qabul qiladigan, jamoaviy ongsiz arxetip bilan bog'liqligiga ishora qilgan. Ushbu ruhiy qayta tug'ilishga itilish – suitsidning tarkibiy motivatsiyalaridan biri bo'lishi mumkin.

Psixologiyada psixodinamik yo'nalish va egopsixologiya namoyondasi Karen Xorni taxmin qilinishicha, ichki tashvish natijasida nevrotik kelishmovchilik paydo bo'lishining sababi atrof-muhitdagi insonlar bilan o'zaro munosabatlarning buzilishi bo'ladi. Bundan tashqari, olimning fikricha, og'ir hayotiy vaziyatlarda odamlar yolg'izlik, nochorlik, qaramlik, dushmanlik his qilishi mumkin, bu esa suisidal xulqatvorning rivojlanishi uchun asos bo'lishi mumkin. Suitsid bolalik qaram(tobe)ligi natijasida paydo bo'lishi ham mumkin, chuqur ildiz otgan norasolik hissiyotlari yoki Xorni aytib o'tganidek, insonning o'zida o'z haqida mavjud bo'lgan "ideallashtirilgan qiyofa" borligi.

O'z joniga qasd qilish "suitsid ijro etish" bo'lishi ham mumkin, insonda jamiyat me'yorlariga noloyiqlik hissi paydo bo'lishi natijasida sodir etilishi mumkin. Karen Xorni to'g'ridan-to'g'ri ximoyalanish va o'z xohishiga yetish vositasi shaklida mazoxistik funksiyalarni aniqlab, zamonaviy autoagressiv motivatsiya asosini keltiradi. Birinchi holatda mazoxist nochorlik va o'zini azoblash yordamida raqobat va aybdorlikdan qochadi, ikkinchi holatda - o'z istagiga yetadi (muhabbatga, yordamga, nazorat qilishda, boshqalarni ayplashda va boshqalarda). Xorni qarashlariga muvofiq, suitsid shaxs ichki xususiyatlari va atrof-muhit omillarining qo'shilishi natijasidir.

Psixologiyada gumanistik yo'nalishning namoyondasi K.Rodgers, suisidal tendensiyalari o'limni ideallashtirish, hayotga nafrat paydo bo'lishi, o'ziga ishonchning yo'qolishi natijasida paydo bo'ladi deb tahmin qilgan. Rodgers fikricha, ushbu holatda "menlik" tuzilish rigid holatda va real hayotiy tajriba u bilan mos

² Po'Latova, Madina Shavkatovna. "Inqirozli vaziyatlarda o'smirlarda suisidal xavf shakllanishini oldini olishning psixologik mexanizmlari." *Science and Education* 3.3 (2022): 547-554.

kelmasligi, xavfdor deb qabul qilinishi, shuning uchun rad etilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishidan sodir bo‘ladi. Natijada reallik bilan aloqa uzilib, o‘ziga ishonch yo‘qotiladi.³

Bizning o‘zbekiston etnoxududimizda aholining suitsidiga bo`lgan moyilligi quyidagilar sabab bo‘lyapti:

-Ruhiy kasallik, asabiy xarakter, xulq-atvorida salbiylik alomatlari yuqori bo‘lishi, ruhiyatdagi o‘zgarishlar.

-Oilaviy janjallar, xususan, er-xotin, qaynona-qaynotalar, arning qavmqrindoshlari yoki o‘zining boshqa birovlar bilan janjallahшиб qolishi.

- Moddiy-maishiy jihatdan kam ta'minlanganlik.

- Giyohvandlikka ruju qo‘yish, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘ya olmaslik.

-Rashk tufayli.

-Ishxonadagi kelishmovchiliklar, boshqa birovning shaxsga tegadigan darajada haqorat qilishi.

- Boshqalar (sevgani bilan janjallahшиб qolishi, o‘qishga kira olmasligi, farzand kasalligi yoki yo‘qligi, pulini yo‘qotish, boshqalar bilan ziddiyat).

Shu bilan birgalikda, shaxs suitsidal axloqining bir necha xatar omillarini ajratish mumkin:

suitsidning avvalgi urinishlari (ushbu odamning);

suitsidning oilaviy tarixi;

– krizisli vaziyat (tuzalmaydigan kasallik, yaqin kishisining o`limi, ishsizlik va moliyaviy muammolar, ajrashish);

– oilaviy omil (ota-onalarning ruhiy azoblanish holati, bolalar jarohati, surunkali janjallar, uyg’unlashmagan tarbiya);

– hissiy buzilishlar (dastavval ruhiy azoblanish holati);

– psixik kasalliklar (piyonistalik, giyohvandlik, shizofryeniya);

– ijtimoiy modellashtirish (OAV dagi suitsid namoyishi, ularning adabiy asarlardagi surati.

Xulosa: SHaxs hayotini saqlab qolish uchuneng birinchi navbatda xar qanday muttaxasislikdagi kishi ularni dardini tinglash va ularga yordam bermog`i kerak. Agar o‘z joniga qasd qilmoqchi bo`lgan yoki shunga moyilligi bo`lgan shaxsni tanisangiz unga hayotini saqlab qolishida yordam berishingiz mumkin. Buning uchun uni tinglang. Suitsidni amalga oshirmoqchi bo`lgan shaxsda asosan o‘ziga bo`lgan ishonchi past darajada bo`lib “Men xechkimga kerak emasman”, “meni xechkim

³ Ozodbek, Karimov. "Suitsid haqida konsepsiya, uning kelib chiqishi, ya‘ni unga sabab bo‘luvchi omillar va ularning oldini olish uchun amalga oshiriladigan ishlar." *Ta‘lim fidoyilari* 24.17 (2022): 2-52.

eshitmaydi" degan tushuncha bo'ladi. Insonlarni tinglab ular mavjud bo'lgan holatni bartaraf etish albatda xar bir shaxsni burchidur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Darslik / Muallif: N.G.Komilova. - Toshkent: TDPY, 2020. 280 b.
2. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
3. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари ва копинг ҳулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик ҳусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
4. Ozodbek, Karimov. "Suitsid haqida konsepsiya, uning kelib chiqishi, ya'ni unga sabab bo'luvchi omillar va ularning oldini olish uchun amalga oshiriladigan ishlar." Ta'lim fidoyilari 24.17 (2022): 2-52.
5. Roziqova, Munisa Fazliddinovna. "Bolalarda o'z joniga qasd qilishning ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlari." Science and Education 3.5 (2022): 1115-1124.
6. Po'Latova, Madina Shavkatovna. "Inqirozli vaziyatlarda 'smirlarda suidsidal xavf shakllanishini oldini olishning psixologik mexanizmlari." Science and Education 3.3 (2022): 547-554.
7. Jurayev, H. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA RUHIYATIGA TA'SIRI. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA KAFEDRASI.
8. Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.
9. Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIY XIMOVASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 9-12.